



JISMONIY SHAXSLARDAN OLINADIGAN DAROMAD
SOLIG'INING AHAMIYATI VA BYUDJET DAROMADLARI TARKIBIDA
TUTGAN O'RNI

Importance of personal income tax and its role in budget revenues.

DTPI Tadbirkorlik va pedagogika instituti

Bank ishi va Moliya kafedrasi o'qituvchisi

Baxriddin Axmedov

Annotatsiya: Ushbu maqoladagi fikrlar va ma'lumotlar asosan jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'ining ahamiyati va byudjetga qay tarzda daromad keltirishi sabablari va ularning tarkiblarini o'rganishga qaratilgan. Byudjet daromadlarini o'rganishda asosan bevosita soliqlar tarkibiga kiruvchi jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'ining byudjetga qanchalar daromad keltirishini aniqlash va uni yanada takomillashtirish choralarini ko'rish.

Abstract: The opinions and information in this article are mainly aimed at studying the importance of income tax from individuals and the reasons for how it brings income to the budget and their contents. In the study of budget revenues, it is important to determine how much income tax from individuals, which is part of direct taxes, brings to the budget and take measures to further improve it.

Kalit so'zlar: Rezident, norezident, JShDS, daromad manbai, deklaratsiya

Key words: Resident, non-resident, JShDS, source of income, declaration,

Kirish

Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i — davlatga to'lanadigan asosiy soliqlardan biridir. Bu soliq nafaqat ish haqidan, balki boshqa daromad turlaridan ham olinadi: agar uy yoki mashina sotsangiz, ijara haqi olsangiz, hatto lotereyada mashina mashina yutib olsangiz ham — daromad solig'ini to'lashingiz kerak bo'ladi. ¹Soliq kodeksining 393-moddasi 1-qismiga asosan O'zbekiston Respublikasi rezidentlari

¹ <https://lex.uz/docs/-4674902>



bo'lgan jismoniy shaxslarning deklaratsiya asosida soliq solinadigan daromadlariga quyidagilar kiradi:

- mulkiy daromadlar, agar ushbu bo'limga muvofiq bu daromadlarga soliq agentida soliq solinmasa;
- ilm-fan, adabiyot va san'at asarlarini yaratganlik hamda ulardan foydalanganlik uchun mualliflik haqi tariqasida olingan daromadlar;
- moddiy naf tarzidagi daromadlar, agar bu daromadlarga soliq agentida soliq solinmagan bo'lsa;
- O'zbekiston Respublikasi hududidan tashqaridagi manbalardan olingan daromadlar;
- soliq agentlari bo'lmagan manbalardan olingan daromadlar;
- ushbu Kodeks 385-moddasining uchinchi qismida ko'rsatilgan jismoniy shaxslar tomonidan olingan daromadlar, ular tomonidan jami yillik daromad to'g'risidagi deklaratsiya asosida soliq to'lash tartibi tanlanganda;
- soliq agenti tomonidan soliq ushlab qolinmagan soliq solinadigan boshqa daromadlar.

²JShDS – jismoniy shaxslar daromad solig'i bo'lib, ish haqi yoki boshqa daromatlardan olinadi. Odatda, bu turdagi soliqlar ish beruvchi tomonidan to'lanadi va ishchi maoshini soliq ushlab qolingandan keyin qo'lga oladi. Ish beruvchi ishchining nomidan soliq hisob-kitoblarini yuritadi va davlatga to'lovlarni amalga oshiradi.

Ammo, ba'zi hollarda JShDSni fuqaro o'zi hisoblab va to'lashi kerak bo'lishi mumkin.

Masalan, agar ijara daromadi yoki lotereya yutug'i kabi daromad turlari mavjud bo'lsa, fuqaro daromad solig'ini mustaqil hisoblashi va to'lashi talab etiladi. Bunday holatlarda, daromad egasi yillik daromad deklaratsiyasini har yili 1-apreldan kechiktirmay topshirishi zarur. Ushbu jarayon onlayn tarzda my.gov.uz sayti yoki soliq portali orqali amalga oshirilishi mumkin. O'zbekiston Respublikasi rezidenti

² <https://jet.bank.uz/article/daromad-soligi-194>

bo'lgan jismoniy shaxsning daromadlariga ushbu Kodeksning 381-moddasi 1-qismiga asosan 12 foizlik soliq stavkasi bo'yicha soliq solinadi.

³**Daromad solig'ining soliq to'lovchilari** – O'zbekiston Respublikasining rezidentlari va O'zbekiston Respublikasidagi manbalardan daromad oluvchi O'zbekiston Respublikasi norezidenti bo'lgan jismoniy shaxslardir.

Daromad solig'i foizi daromad turi va soliq to'lovchining rezident yoki norezident ekanligiga qarab farqlanadi:

Rezidentlar uchun: umumiy daromad uchun 12% soliq stavkasi qo'llaniladi, aksiyalar va obligatsiyalardan olingan dividendlar esa 5% soliq bilan hisoblanadi.

Norezidentlar uchun: mehnat yoki fuqarolik-huquqiy shartnomalar asosida olingan daromad uchun 12%, xalqaro tashuvlarda transport xizmatlari daromadi uchun 6%, foiz daromadlari uchun esa 10%.

Misol uchun, agar rasmiy oylik maoshingiz 5 million so'm bo'lsa, 600 ming so'mi JShDS sifatida ushlab qolinadi va qo'lingizga 4,4 million so'm olasiz.

Soliq solinadigan baza – soliq solish ob'ektlarining o'rtacha yillik qoldiq qiymati (o'rtacha yillik qiymat) soliq davridagi har bir oyning ohirgi kunidagi holatga ko'ra soliq solish ob'ektlarining qoldiq qiymatlarini (o'rtacha yillik qiymatlarini)

³ Nodir G'iyosaliyevich Xidirov, Ibrat Akram O'G'Li To'Rayev, Nigina Baxtiyor Qizi Kenjayeva, & Durdona Ulash Qizi Ruziqulova (2023). Davlat byudjeti daromadlar tarkibida to'g'ri soliqlarni ulushini oshirish masalalari. Science and Education, 4 (12), 679-685.



qo'shishdan olingan summaning o'n ikkidan bir qismi sifatida ortib boruvchi yakun bilan aniqlanadi.

Soliq bazasi har bir soliq solish obyekti bo'yicha alohida aniqlanadi.

Jismoniy shaxslarning jami daromadiga quyidagilar kiradi:

1. Mehnatga haq to'lash tarzidagi daromadlar - Ish beruvchi bilan mehnatga oid munosabatlarda bo'lgan va tuzilgan mehnat shartnomasiga (kontraktiga) muvofiq ishlarni bajarayotgan xodimlarga hisoblanadigan hamda to'lanadigan barcha to'lovlar (ish haqi, premiya, qo'shimcha to'lovlar, kompensatsiyalar va b.) mehnatga haq to'lash tarzidagi daromadlar deb e'tirof etiladi.

2. Mulkiy daromadlar - Jismoniy shaxslarning mulkiy daromadlariga foiz to'lovlari, dividendlar, mulkni ijaraga berishdan tushgan daromadlar, mulkni sotishdan olingan daromadlar va boshqa daromadlar kiradi.

3. Moddiy naf tarzidagi daromadlar - Moddiy naf tarzidagi daromadlar bo'lib, soliq agenti tomonidan soliq to'lovchi manfaatlarini ko'zlab tovarlar (xizmatlar), mulkiy huquqlar haqini to'lashi, jismoniy shaxsning soliq agenti oldidagi qarzining yuridik shaxs qarori bilan hisobdan chiqarilgan summaları va h.k.

4. Boshqa daromadlar - Jismoniy shaxslarning boshqa daromadlariga pensiya va nafaqalar, moddiy yordam, yutuqlar va boshqalar kiradi.

Daromad solig'ini to'lash asosan ikki xil usulda amalga oshiriladi:

- daromad manbaidan;
- daromad to'g'risidagi deklaratsiya.

TAHLIL VA NATIJALAR

Yurtimizda davlat byudjeti daromadlarining solikli daromdlari qismida bevosita soliqlarning ahamiyatini hamda salmog'ini oshirish maqsadida bir qancha islohotlar amalga oshirilmoqda.

O'zbekistondagi barcha soliq tushumlari konsolidatsiyalangan byudjetga, ya'ni davlat va hududiy byudjetlar (viloyatlar, shaharlar, tumanlar) yig'indisiga o'tkaziladi.



Byudjet — davlatning daromadlari va xarajatlari ro'yxati bo'lib, unda mamlakat va hududlar qancha mablag' olishi va bu mablag'larni qayerga sarflashi belgilanadi. Byudjetlar darajalar bo'yicha qabul qilinadi: avval davlat byudjeti, keyin viloyatlar, shaharlar va oxirgi navbatda tumanlar byudjetlari tasdiqlanadi. Ko'plab hududlarda daromad solig'ining 100% hududiy byudjetga yo'naltiriladi. Ammo ayrim hududlarda taqsimot farq qiladi:

Navoiy viloyati: Daromad solig'ining 63% viloyat byudjetiga, qolgan qismi davlat byudjetiga tushadi.

Toshkent viloyati: 42% viloyat byudjetida qoladi, qolgan qismi davlatga yo'naltiriladi.

Toshkent shahri: faqat 5% shahar byudjetiga tushadi, qolgan qismi davlat byudjetiga yuboriladi.

Misol uchun, 2023-yilda davlat budjetidan quyidagi sohalarga xarajatlar qilingan:

Yo'nalish	Masalan	Jami/ so'mda
Ijtimoiy siyosat	Bolali oilalarga nafaqalar, kam ta'minlangan oilalarga moddiy yordam, bolaligidan nogironlarga nafaqa, bola tug'ilishi bilan beriladigan nafaqa, Qoraqalpog'iston Respublikasi va Xorazm viloyatida yordamga muhtoj oilalarga bir martalik moddiy yordam	18 067 mlrd
Ta'lim	Maktabgacha ta'lim, umumiy o'rta ta'lim, o'rta maxsus kasb-hunar ta'limi, oliy ta'lim va kadrlar tayyorlash bilan bog'liq boshqa xarajatlar	58 372 mlrd
Sog'liqni saqlash	Ish haqi va unga tenglashtirilgan to'lovlar, davlat dasturlari va markazlashtirilgan tadbirlar, dori-darmon va tibbiy buyumlar	28 426 mlrd
Sport	Bolalar va o'smirlar sport maktablari, futbol akademiyalari, oliy sport mahorati maktablari	2 317 mlrd



Madaniyat va kino	Respublika ma'naviyat va ma'rifat markazi va uning hududiy bo'linmalari, madaniyat saroylari va uylar, teatrlar, filarmoniyalar, maqom san'ati tashkilotlari, sirk, kinematografiya agentligi	2 486 mlrd
Fan	Davlat ilmiy-texnik dasturlari uchun xarajatlar, noyob ilmiy ob'ektlarni, ilmiy muassasalarni va davlat arxivlarini saqlash	1 843 mlrd
Iqtisodiyot	Suv xo'jaligi ekspluatatsion xarajatlari, geologiya-qidiruv ishlari, aholi punktlarini obodonlashtirish ishlari	22 480 mlrd
Rivojlanish dasturlari	Markazlashtirilgan kapital qo'yilmalar, mahalla infratuzilmasini yaxshilash bilan bog'liq tadbirlar	30 045 mlrd

O'zbekistonda daromad solig'ining byudjetga tasiri quyidagi asosiy jihatlar bilan izohlanadi:

Byudjet daromadlarini shakllantirishda muhim o'rin tutadi: Daromad solig'i, ayniqsa, jismoniy va yuridik shaxslarning soliq to'lovlari davlat byudjetiga to'g'ridan-to'g'ri mablag' kiritadi. Jismoniy shaxslardan olinadigan soliq va yuridik shaxslarning foyda solig'i — bu byudjet daromadlari tarkibidagi asosiy qism bo'lib, davlatning asosiy xarajatlarini moliyalashtirishga yordam beradi.

Ijtimoiy va iqtisodiy dasturlarni moliyalashtirish: Daromad solig'i orqali tushgan mablag'lar davlatning ijtimoiy soha va infratuzilma loyihalarini, shuningdek, sog'liqni saqlash, ta'lim va boshqa sohalardagi davlat dasturlarini amalga oshirish uchun zarur bo'lgan mablag'larni ta'minlaydi. Masalan, 2024-yilda sog'liqni saqlash tizimini moliyalashtirishga qaratilgan aksiz solig'idan tushgan mablag'lar.

Iqtisodiy barqarorlikka ta'siri: Daromad solig'i stavkalarining o'zgarishi yoki joriy etilishi iqtisodiyotning umumiy holatiga ta'sir qiladi. Agar soliq stavkalari oshirilsa, davlat byudjetining daromadlari ortadi, ammo bu shuningdek, jismoniy va yuridik shaxslarning iqtisodiy faoliyatiga ta'sir ko'rsatishi mumkin. Shuning uchun soliq siyosati ehtiyotkorlik bilan boshqarilishi kerak.

Davlat qarzining kamayishi: Daromad solig'idan tushadigan mablag'lar yordamida davlat qarzlarini kamaytirishga yordam beradi. Bu esa mamlakatning moliyaviy mustahkamligini oshiradi va iqtisodiy o'sish uchun imkoniyat yaratadi.



Soliqlardan keladigan qo'shimcha daromadlar: 2024-yilda joriy etilgan yangi aksiz solig'лари (masalan, gazlangan ichimliklar va avtomobil shinalari uchun) orqali tushadigan mablag'lar byudjetga qo'shimcha daromad keltiradi. Bu qo'shimcha soliq manbalari davlatning moliyaviy resurslarini yanada kengaytiradi.

Xulosa

Shunday qilib, daromad solig'i byudjetga juda katta ta'sir ko'rsatadi, chunki u davlatning moliyaviy barqarorligini ta'minlaydi, ijtimoiy dasturlarni amalga oshirish uchun zarur mablag'larni yig'adi va iqtisodiy o'sish uchun zarur shart-sharoitlarni yaratadi. Soliqlar asosan davlat qarzlarini qoplashda juda muhim daromad turi hisoblanadi. Soliqlarni to'g'ri joriy etish va uni yig'ish, ularni to'g'ri sarflash davlatning asosiy vazifasidir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. <https://lex.uz/docs/-4674902>
2. <https://jet.bank.uz/article/daromad-soligi-194>
3. Nodir G'Iyosaliyevich Xidirov, Ibrat Akram O'G'Li To'Rayev, Nigina Baxtiyor Qizi Kenjayeva, & Durdona Ulash Qizi Ruziqulova (2023). Davlat byudjeti daromadlar tarkibida to'g'ri soliqlarni ulushini oshirish masalalari. Science and Education, 4 (12), 679-685.
4. Sultonov, Sirojiddin Muqum O'G'Li (2024). XALQARO SOLIQQA TORTISHNING ASOSIY TAMOIYILLARI, HUQUQIY ASOSLARI. Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, 4 (2), 593-600.
5. Iskandarov Toyirjon Amanovich (2021). DAROMADLARNI SOLIQQA TORTISHDA UMUMDEKLARATSIYALASH TIZIMINING OBYEKTIV ZARURIYATI. Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, 1 (2), 50-61.